



## JA'HON SAVDO TASHKILOTIGA A'ZO BO'LISH JARAYONIDA O'ZBEKISTON BOJXONA-HUQUQIY TARTIBGA SOLISH TIZIMINI XALQARO STANDARTLARGA MUVOFIQLASHTIRISH

*Eshboyev Elyorbek Shuhrat o'g'li*

*Toshkent davlat yuridik universiteti tyutori*

[elyorjoneshboyev@gmail.com](mailto:elyorjoneshboyev@gmail.com)

*Tel: +998 88 185 25 10*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining Jahon savdo tashkilotiga (JST) a'zo bo'lish jarayonida bojxona-huquqiy tartibga solish tizimini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirishning huquqiy va institutsional jihatlarini tadqiq etiladi. Mavzuning dolzarbligi shundaki, JSTga a'zolik milliy bojxona qonunchiligini ko'p tomonlama bitimlarning murakkab majmuasiga — bojxona qiymatini aniqlash to'g'risidagi bitim (GATT-1994ning VII moddasi), Savdoni osonlashtirish to'g'risidagi bitim (TFA), Savdodagi texnik to'siqlar (TBT), Sanitariya va fitosanitariya choralari (SPS), Kelib chiqish qoidalari hamda Yuklashdan oldingi tekshiruv to'g'risidagi bitimlarga — muvofiqlashtirishni talab qiladi. Tadqiqotda funksional, qiyosiy, tizimli va rasmiy-huquqiy tahlil usullaridan foydalangan holda O'zbekiston bojxona tizimining hozirgi holati baholanadi, JST intizomlariga nisbatan mavjud nomuvofiqliklar aniqlanadi hamda TFAning 10.4-moddasiga muvofiq Milliy yagona darcha tizimini joriy etishning xalqaro tajribasi o'rganiladi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, muvofiqlashtirishning asosiy yo'nalishlari — bojxona qiymatini JST talablariga mos aniqlashga o'tish, rasmiylashtiruv jarayonlarini raqamlashtirish va unifikatsiya qilish, dastlabki qaror hamda bojxona auditini joriy etish, xavflarni boshqarish tizimini mustahkamlash va integratsiyalashgan Milliy yagona darchani barpo etishdir. Mavrikiy, Shvetsiya, Niderlandiya, AQSh, Singapur va Koreya Respublikasi tajribasining qiyosiy tahlili bunday islohotlar rasmiylashtiruv vaqti va tranzaksion xarajatlarni sezilarli*



*qisqartirishini, savdo hajmi va shaffoflikni esa oshirishini ko'rsatadi. Muallif bojxona-huquqiy bazani bosqichma-bosqich, xalqaro shartnomalarga tayangan holda modernizatsiya qilish O'zbekistonning JSTga muvaffaqiyatli a'zo bo'lishi va milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligining zaruriy sharti degan xulosaga keladi.*

***Kalit so'zlar:** Jahon savdo tashkiloti; bojxona-huquqiy tartibga solish; xalqaro standartlar; savdoni osonlashtirish to'g'risidagi bitim; milliy yagona darcha; bojxona qiymati; muvofiqlashtirish*

## ГАРМОНИЗАЦИЯ СИСТЕМЫ ТАМОЖЕННО-ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА С МЕЖДУНАРОДНЫМИ СТАНДАРТАМИ В ПРОЦЕССЕ ВСТУПЛЕНИЯ ВО ВСЕМИРНУЮ ТОРГОВУЮ ОРГАНИЗАЦИЮ

***Аннотация.** В статье исследуются правовые и институциональные аспекты гармонизации системы таможенно-правового регулирования Республики Узбекистан с международными стандартами Всемирной торговой организации (ВТО) в процессе вступления страны в эту организацию. Актуальность темы обусловлена тем, что членство в ВТО требует приведения национального таможенного законодательства в соответствие со сложным комплексом многосторонних соглашений — Соглашением о таможенной оценке (статья VII ГАТТ-1994), Соглашением об упрощении процедур торговли (ТФА), соглашениями о технических барьерах в торговле (ТБТ), санитарных и фитосанитарных мерах (СПС), о правилах происхождения и о предотгрузочной инспекции. С использованием функционального, сравнительного, системного и формально-юридического методов оценивается текущее состояние таможенной системы Узбекистана, выявляются несоответствия дисциплинам ВТО и изучается международный опыт внедрения Национального единого окна согласно статье 10.4 ТФА. Результаты показывают, что ключевыми направлениями гармонизации являются переход к таможенной оценке в соответствии с требованиями ВТО, цифровизация и*



унификация процедур оформления, внедрение предварительных решений и постконтрольного аудита, укрепление системы управления рисками и создание интегрированного Национального единого окна. Сравнительный анализ опыта Маврикия, Швеции, Нидерландов, США, Сингапура и Республики Корея показывает, что такие реформы существенно сокращают время оформления и транзакционные издержки, повышая при этом объёмы торговли и прозрачность. Автор приходит к выводу, что поэтапная, опирающаяся на международные договоры модернизация таможенно-правовой базы является необходимым условием успешного вступления Узбекистана в ВТО и конкурентоспособности национальной экономики.

**Ключевые слова:** *Всемирная торговая организация; таможенно-правовое регулирование; международные стандарты; соглашение об упрощении процедур торговли; национальное единое окно; таможенная оценка; гармонизация*

## HARMONIZATION OF UZBEKISTAN'S CUSTOMS-LEGAL REGULATION SYSTEM WITH INTERNATIONAL STANDARDS IN THE PROCESS OF ACCESSION TO THE WORLD TRADE ORGANIZATION

**Abstract.** This article examines the legal and institutional dimensions of harmonizing Uzbekistan's customs-legal regulation system with the international standards of the World Trade Organization (WTO) during the country's accession process. The relevance of the topic stems from the fact that WTO membership requires the alignment of national customs legislation with a complex body of multilateral agreements — the Customs Valuation Agreement (Article VII of GATT 1994), the Trade Facilitation Agreement (TFA), the Agreements on Technical Barriers to Trade (TBT), Sanitary and Phytosanitary Measures (SPS), Rules of Origin and Pre-shipment Inspection. Using functional, comparative, systemic and formal-legal methods, the study analyses the current state of Uzbekistan's customs framework, identifies gaps relative to WTO disciplines, and evaluates the



international experience of introducing a National Single Window under Article 10.4 of the TFA. The results show that the key directions of harmonization are the transition to WTO-consistent customs valuation, the digitalization and unification of clearance procedures, the introduction of advance rulings and post-clearance audit, the strengthening of a risk-management system, and the establishment of an integrated National Single Window. The comparative analysis of the experience of Mauritius, Sweden, the Netherlands, the United States, Singapore and the Republic of Korea demonstrates that such reforms substantially reduce clearance time and transaction costs while increasing trade volumes and transparency. The author concludes that a phased, treaty-anchored modernization of the customs-legal framework is a prerequisite for Uzbekistan's successful WTO accession and for the competitiveness of its national economy.

## KIRISH

O'zbekiston Respublikasining jahon iqtisodiy tizimiga to'laonli integratsiyalashuvi bugungi kunda mamlakat tashqi iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Ushbu jarayonning markaziy bo'g'ini — Jahon savdo tashkilotiga (keyingi o'rinlarda — JST) a'zo bo'lishdir. JST 1995-yil 1-yanvarda o'z faoliyatini boshlagan bo'lib, hozirgi kunda unga dunyoning 164 dan ortiq davlati a'zo bo'lib, ular jahon tovar aylanmasining qariyb 98 foizini nazorat qiladi<sup>1</sup>. O'zbekiston uchun bu tashkilotga a'zolik nafaqat bozorlarga chiqishning kengayishini, balki milliy huquqiy tizimni xalqaro savdo qoidalarini bilan uyg'unlashtirishni ham anglatadi.

O'zbekiston milliy iqtisodiyotini rivojlantirish va jahon hamjamiyatidagi o'rnini mustahkamlashda tashqi savdo aloqalarining ahamiyati beqiyosdir. Mamlakat o'zining eksport salohiyatini oshirishni aynan JSTga a'zo bo'lishda ko'rmoqda, chunki tashkilot xalqaro savdo munosabatlari uchun qulay huquqiy tizimni taqdim etadi va a'zo davlatlarning savdo siyosatini kelishilgan tartibda olib

<sup>1</sup> Jahon savdo tashkiloti va ko'p tomonlama savdo tizimi / N. S. Ismailova, U. A. Dadabaev, A. Kh. Akhmadzhonov, Kh. K. Faizieva, Z. Kh. Akhmadaliev. — Toshkent, 2022. — 150 b.



borishini ta'minlaydi. Ayni paytda O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo aylanmasining qariyb 97 foizi JSTga a'zo mamlakatlar hissasiga to'g'ri kelishi ushbu tashkilot bilan huquqiy uyg'unlashuvning naqadar zarurligini ko'rsatadi.

Muammoning dolzarbligi shu bilan belgilanadiki, JSTga a'zo bo'lish — bir martalik siyosiy qaror emas, balki milliy qonunchilikni tashkilotning ko'p tomonlama bitimlariga bosqichma-bosqich muvofiqlashtirishni talab qiladigan uzoq muddatli huquqiy islohot jarayonidir. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, har bir davlat uchun a'zolik muzokaralari o'rtacha 8–15 yilni tashkil etadi. Ushbu jarayonda eng murakkab va texnik jihatdan og'ir bo'lgan sohalardan biri — bojxona ishini tartibga soluvchi huquqiy normalarni JST standartlariga moslashtirishdir, chunki aynan bojxona chegarasi xalqaro savdo bitimlari amalga oshiriladigan asosiy nuqta hisoblanadi.

O'zbekiston JSTga a'zo bo'lish bo'yicha dastlabki murojaatni 1994-yil dekabrda bergan, ammo turli sabablarga ko'ra bu jarayon uzoq muddat to'xtab qolgan edi. 2017-yilning oxirida a'zolik jarayoni rasman qayta tiklandi va 2018-yil boshida JST Kotibiyatiga tashqi savdo rejimi to'g'risidagi yangilangan memorandum hamda 23 ta hujjat topshirildi. 2020-yil 7-iyulda 15 yillik tanaffusdan so'ng O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishi bo'yicha ishchi guruhning navbatdagi yig'ilishi bo'lib o'tdi. Nihoyat, jarayon Prezidentning 2022-yildagi PQ-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da alohida maqsad sifatida mustahkamlab qo'yildi.

Mazkur strategiyada JSTga a'zo davlatlar bilan muzokaralar olib borish, texnik jihatdan tartibga solish, sanitariya va fitosanitariya choralari hamda intellektual mulk himoyasi sohalarida milliy qonunchilikni JST bitimlariga muvofiqlashtirish, ichki bozorni nota'rif choralari orqali himoya qilish tizimini rivojlantirish kabi aniq vazifalar belgilangan. Bu esa bojxona-huquqiy tartibga solish tizimini xalqaro standartlarga moslashtirishning konseptual va amaliy asoslarini ishlab chiqishni taqozo etadi.



Muammoning ilmiy o'rganilganlik darajasiga kelsak, JST va ko'p tomonlama savdo tizimining umumiy masalalari yurtimizda A.V.Vahabov<sup>2</sup>, D.A.Tadjibayeva, Sh.X.Xajibakiev hamda N.S. Ismailova, U.A.Dadabayev, A.X.Axmadjonov va boshqalarning ishlarida yoritilgan. Xalqaro savdo huquqining tizimli tabiati V.A. Nikiforov tomonidan tahlil qilingan. Milliy yagona darcha tizimini O'zbekistonda joriy etish istiqbollari M.U.Toshpulatova tomonidan tadqiq etilgan. Xorijiy adabiyotlarda savdoni osonlashtirish va yagona darcha muammolari D.Widdowson va hammualliflar I.Martínez-Zarzoso va S. Chelala, E.Tijan, A.Grainger tomonidan chuqur o'rganilgan. Bojxona protseduralarining xalqaro uyg'unlashuvi WCO (Jahon bojxona tashkiloti) va UN/CEFACT hujjatlarida standartlashtirilgan.

Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda asosan iqtisodiy oqibatlar yoxud yagona darcha tizimining texnik jihatlar alohida-alohida ko'rib chiqilgan. Bojxona-huquqiy tartibga solish tizimini JST bitimlariga muvofiqlashtirishning yaxlit huquqiy modeli — bojxona qiymati, rasmiylashtiruv, xavflarni boshqarish va institutsional integratsiyani birlashtiruvchi kompleks yondashuv — yetarlicha ishlab chiqilmagan. Aynan shu jihat ushbu maqolaning ilmiy yangiligini belgilaydi.

Muammoning tarixiy ildizlariga kelsak, JSTning tashkil etilishi yarim asrdan ortiq tarixga ega. Ikkinchi jahon urushidan so'ng mamlakatlar iqtisodiyotini jonlantirish maqsadida 1947-yilda 23 ta davlat tomonidan Jenevada Ta'riflar va savdo bo'yicha Bosh kelishuv (GATT) tuzilib, 1948-yilda amaliyotga tatbiq etilgan. Ko'p tomonlama savdo muzokaralarining bir necha raundlari — jumladan Kennedi (1964–1967), Tokio (1973–1979) va Urugvay (1986–1994) raundlari — savdo to'siqlarini bosqichma-bosqich kamaytirishga xizmat qildi. Aynan Urugvay raundida 1994-yil 15-aprelda Marokashda imzolangan bitim asosida JST tashkil etilib, u 1995-yil 1-yanvardan mustaqil xalqaro tashkilot sifatida faoliyatini boshladi. Bugungi kunda BMT davlatlar o'rtasidagi siyosiy munosabatlarni tartibga solsa, JST ular

<sup>2</sup> Vahabov, A. V. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar : darslik / A. V. Vahabov, D. A. Tadjibaeva, Sh. Kh. Xajibakiev. – Toshkent : Baktria press, 2015. – 88 b.



oʻrtasidagi savdo munosabatlarini tartibga soluvchi asosiy global maydon hisoblanadi.

JSTning asosiy funksiyalari — kelishuvlarni joriy etish va nazorat qilish, oʻzaro muzokaralar uchun forum tashkil qilish, savdo nizolarini hal etish, savdo siyosati toʻgʻrisida axborot berish va rivojlanayotgan mamlakatlarga texnik yordam koʻrsatishdan iborat. Ushbu funksiyalarning barchasi huquqiy meʼyorlarga tayanadi, shu bois aʼzolikka intilayotgan davlat oʻz ichki huquqiy tizimini, ayniqsa tashqi savdo va bojxona sohasidagi qonunchilikni tashkilot intizomlariga muvofiqlashtirishi shart. Bu jarayon mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, ichki bozorni erkinlashtirish va xalqaro savdo munosabatlarida ishonchli hamkor maqomini qoʻlga kiritish bilan bevosita bogʻliqdir.

Tadqiqotning maqsadi — Oʻzbekiston bojxona-huquqiy tartibga solish tizimini JSTning xalqaro standartlariga muvofiqlashtirishning huquqiy va institutsional yoʻnalishlarini aniqlash hamda ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: JSTning bojxona ishiga taalluqli asosiy bitimlarini tizimlashtirish; Oʻzbekiston bojxona qonunchiligining hozirgi holatini va JST intizomlariga nisbatan nomuvofiqliklarni tahlil qilish; Milliy yagona darcha tizimini joriy etishning xalqaro tajribasini oʻrganish; muvofiqlashtirishning iqtisodiy oqibatlarini baholash hamda amaliy tavsiyalar tayyorlash.

## **Asosiy qism**

Bojxona-huquqiy tartibga solish nazariyasida markaziy tushuncha — “bojxona rejimi” hisoblanadi. Xalqaro savdo bitimi obyektlari boʻlgan tovarlar, ishlar va xizmatlar davlatning bojxona hududini kesib oʻtishi bilan ularga nisbatan bojxona rejimi qoidalari, yaʼni tashish, hujjatlarni rasmiylashtirish, bojlar va shunga oʻxshash toʻlovlarni undirish tartiblari tatbiq etiladi. Tashqi savdo operatsiyalarini tartibga solishda asosiy oʻrinni tarif usullari, xususan import bojxona tarifi egallaydi. Import bojxona tarifi oʻz tabiatiga koʻra oʻzaro bogʻlangan elementlardan — mamlakatga kiritiladigan tovarlar nomenklaturasining tizimga solingan tarkibi



hamda bojxona qiymatini aniqlash usullari va bojlarni undirish tartibidan tashkil topadi.

JSTning huquqiy tizimi ikki asosiy tamoyilga tayanadi: eng qulaylik yaratilgan davlat rejimi va milliy rejim. Bularga qo'shimcha ravishda, tashkilot savdoni tarif choralari orqali tartibga solishni afzal ko'radi: JST talablariga ko'ra, barcha tashqi savdo operatsiyalarini imkon qadar bojxona bojlari, ya'ni tariflar yordamida tartibga solish maqsadga muvofiq hisoblanadi, notarif to'siqlar esa faqat aniq belgilangan istisno hollarda qo'llaniladi.

Nazariy jihatdan bojxona sohasining xalqaro uyg'unlashuvi ikki qatlamda kechadi. Birinchi qatlam — moddiy-huquqiy uyg'unlashuv bo'lib, u bojxona qiymati, tovar nomenklaturasi (Tovarlarni tavsiflash va kodlashtirishning uyg'unlashtirilgan tizimi — Harmonized System), kelib chiqish qoidalari kabi asosiy institutlarni yagona xalqaro qoidalarga keltirishni nazarda tutadi. Ikkinchi qatlam — protsessual uyg'unlashuv bo'lib, u bojxona rasmiylashtiruvi jarayonlarini soddalashtirish, shaffoflashtirish va raqamlashtirishni o'z ichiga oladi. Aynan shu ikkinchi qatlam Savdoni osonlashtirish to'g'risidagi bitim (TFA) va Kioto'ning qayta ko'rib chiqilgan konvensiyasi orqali standartlashtiriladi.

Savdoni osonlashtirish konseptsiyasi zamonaviy bojxona huquqi nazariyasida alohida o'rin tutadi. A.Grainger ta'kidlaganidek, savdoni osonlashtirish nazorat va soddalashtirish o'rtasidagi muvozanatni ta'minlovchi, tartibga solish talablariga rioya qilish xarajatlarini kamaytiruvchi choralar majmuidir<sup>3</sup>. Bu yondashuv "savdo va tartibga solish nazorati o'rtasidagi muvozanat" tamoyili sifatida bojxona xizmatining xavflarni boshqarish tizimida o'z ifodasini topadi: bojxona resurslari yuqori xavfli yuklarga yo'naltirilib, past xavfli oqim yengillashtiriladi.

"Muvofiqlashtirish" tushunchasining o'zi ham nazariy tahlilni talab qiladi. Xalqaro huquq doktrinasida u milliy huquqiy normalarni xalqaro standartlarga yaqinlashtirish jarayoni sifatida tushuniladi va unifikatsiya hamda approksimatsiya

<sup>3</sup> Grainger A. Trade Facilitation: A Conceptual Review // Journal of World Trade. — 2011. — Vol. 45, № 1. — P. 39-62



tushunchalaridan farqlanadi. Bojxona sohasida muvofiqlashtirish ko‘pincha to‘liq unifikatsiyani emas, balki milliy o‘ziga xoslikni saqlagan holda xalqaro me‘yorlarga mos huquqiy natijaga erishishni nazarda tutadi. Masalan, bojxona qiymatini aniqlash usullari barcha a‘zo davlatlarda bir xil bo‘lishi shart, ammo ularni amalga oshiruvchi milliy protsessual qoidalar turlicha bo‘lishi mumkin.

Xalqaro savdo huquqining manbalari tizimi ham muvofiqlashtirish jarayonini murakkablashtiradi. V.A. Nikiforov ta’kidlaganidek, xalqaro savdo huquqi ommaviy va xususiy huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi normalarni o‘zida jamlagan tizimlararo kompleks tuzilma hisoblanadi<sup>4</sup>. U xalqaro savdo-huquqiy munosabatlar asoslarini tartibga soluvchi tamoyillar, hukumatlararo va nohukumat tashkilotlar hujjatlari, savdo nizolarini hal etishning xalqaro-huquqiy vositalari hamda tashqi savdo faoliyatini davlat huquqiy tartibga solinishi kabi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari, tashqi savdo munosabatlari sohasida *lex mercatoria* — savdo odatlari va amaliyoti asosida shakllangan g‘ayrimilliy huquq manbalari ham muhim o‘rin tutadi. Bularning barchasi milliy bojxona qonunchiligini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirishda hisobga olinishi lozim.

## Material va metodologiya

Tadqiqotning empirik va normativ bazasini JSTning ko‘p tomonlama bitimlari (GATT-1994, Savdoni osonlashtirish to‘g‘risidagi bitim, Savdodagi texnik to‘siqlar, Sanitariya va fitosanitariya choralari, Kelib chiqish qoidalari va Yuklashdan oldingi tekshiruv to‘g‘risidagi bitimlar), Jahon bojxona tashkiloti (WCO) hamda UN/CEFACTning uslubiy hujjatlari, OECD va Osiyo taraqqiyot bankining (ADB) tahliliy hisobotlari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining bojxona sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlari tashkil etdi.

Tadqiqotda aralash uslubiy yondashuv qo‘llanildi. Rasmiy-huquqiy usul yordamida JST bitimlarining normalari va milliy bojxona qonunchiligi qoidalari tahlil qilindi. Qiyosiy-huquqiy usul orqali Milliy yagona darcha tizimini joriy etgan

<sup>4</sup> Nikiforov, V. A. Mezhdunarodnoe torgovoe pravo kak mezhсистемное комплексное образование (International trade law as an intersystemic complex formation). *Pravo*, 347–348.



mamlakatlar — Mavrikiy, Shvetsiya, Niderlandiya, AQSh, Singapur va Koreya Respublikasi tajribasi o'rganildi. Tizimli va funksional tahlil bojxona-huquqiy tartibga solishning alohida elementlari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashga xizmat qildi. Bundan tashqari, induksiya va deduksiya, taqqoslash va umumlashtirish kabi umumilmiy usullardan foydalanildi.

Tahlil uch bosqichda amalga oshirildi: birinchi bosqichda JSTning bojxonaga taalluqli intizomlari tizimlashtirildi; ikkinchi bosqichda O'zbekiston bojxona qonunchiligining ushbu intizomlarga muvofiqligi baholanib, nomuvofiqliklar “gap-analiz” aniqlandi; uchinchi bosqichda xalqaro tajriba asosida muvofiqlashtirishning istiqbolli modeli va amaliy tavsiyalari shakllantirildi.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati shundan iboratki, uning natijalari bojxona qonunchiligini takomillashtirish bo'yicha normativ hujjatlar loyihalarini tayyorlashda, JSTga a'zolik bo'yicha ishchi guruhning muzokara pozitsiyalarini ishlab chiqishda hamda oliy ta'lim muassasalarida xalqaro savdo huquqi va bojxona ishi fanlarini o'qitishda foydalanilishi mumkin. Tadqiqotning cheklovi sifatida shuni ta'kidlash lozimki, muvofiqlashtirishning miqdoriy-iqtisodiy samaradorligini aniq baholash uchun batafsil statistik ma'lumotlar va ekonometrik modellashtirish talab etiladi, bu esa alohida tadqiqot mavzusi hisoblanadi.

## **Tadqiqot natijalari**

### **JSTning bojxona ishiga taalluqli asosiy bitimlari**

JSTga a'zo bo'lish uchun O'zbekiston tashkilotning kamida 15 ta bitimida aks ettirilgan majburiyatlarni o'z zimmasiga olishi talab qilinadi; bu bitimlar keng qamrovli va murakkab yuridik hujjatlar hisoblanadi. Ularning bojxona-huquqiy tartibga solishga bevosita ta'sir ko'rsatadigan asosiylarini quyidagicha tizimlashtirish mumkin.

Birinchidan, bojxona qiymatini aniqlash to'g'risidagi bitim (GATT-1994ning VII moddasi). Ushbu bitim import qilinayotgan tovarning bojxona qiymatini aniqlashning yagona, adolatli va neytral usullar tizimini o'rnatadi. Asosiy usul — bitim qiymati, ya'ni tovar uchun haqiqatda to'langan yoki to'lanishi lozim



bo'lgan narx. Faqat bu usulni qo'llash mumkin bo'lmaganida ketma-ket boshqa usullarga o'tiladi. Bitimning maqsadi — bojxona qiymatini o'zboshimcha yoki fiktiv narxlar asosida emas, balki savdo amaliyotiga mos ravishda aniqlashdir. Bu esa import bojlarining oldindan bashorat qilinishini ta'minlaydi.

Bojxona qiymatini baholash import qiluvchilar uchun eng nozik masalalardan biri bo'lib qoladi, chunki mahsulot qiymatini baholash jarayonidan kelib chiqadigan noaniqlik qo'shimcha xarajatlar va nizolarga sabab bo'ladi. GATT VII moddasining O'zbekiston bojxona amaliyotida to'liq tatbiq etilishi — deklarant e'lon qilgan bitim qiymatini asossiz rad etmaslik, minimal narxlar amaliyotidan voz kechish va baholash usullarini qat'iy ketma-ketlikda qo'llashni talab qiladi. Aynan shu jihat huquqiy muvofiqlashtirishning birinchi va eng muhim vazifasidir, zero u to'g'ridan-to'g'ri import bojlari va soliqlar summasiga ta'sir ko'rsatadi.

Ikkinchidan, Savdoni osonlashtirish to'g'risidagi bitim (Trade Facilitation Agreement, TFA)<sup>5</sup>. 2017-yil 22-fevralda kuchga kirgan ushbu bitim tovarlarni bojxona chegarasidan o'tkazish, rasmiylashtirish va chiqarish tartiblarini soddalashtirish, unifikatsiya qilish va shaffoflashtirishga qaratilgan. Bitim ma'lumotlarni oldindan e'lon qilish, dastlabki qarorlar, tovarlarni chiqarishni tezlashtirish, chegara idoralari o'rtasidagi hamkorlik hamda — 10.4-modda bo'yicha — Milliy yagona darcha tizimini joriy etish kabi normalarni o'z ichiga oladi.

Uchinchidan, Savdodagi texnik to'siqlar to'g'risidagi bitim va Sanitariya va fitosanitariya choralarini qo'llash to'g'risidagi bitim. Ushbu bitimlar texnik reglamentlar, standartlar, sinash va sertifikatlash jarayonlari savdoga keragidan ortiq to'siq bo'lmasligini talab qiladi. JST kelishuvi a'zo davlatlardan ushbu chora-tadbirlarni barcha mamlakatlardan import qiluvchilar uchun bir xilda, kamsitishsiz qo'llashni talab qiladi. O'zbekistonda oziq-ovqat mahsulotlarini sinash bo'yicha JST talablariga mos 775 ta standartdan atigi 100 tasi joriy qilingani, 100 dan ortiq laboratoriyadan faqat 10 tasi xalqaro darajada akkreditatsiyadan o'tgani ushbu sohadagi jiddiy nomuvofiqlikni ko'rsatadi.

<sup>5</sup> Widdowson, D., Blegen, B., Short, G., Lewis, G., Garcia-Godos, E., & Kashubsky, M. (2018). Single window in the context of the WTO Trade Facilitation Agreement. *World Customs Journal*, 13(1), 3–19



To'rtinchidan, Kelib chiqish qoidalari to'g'risidagi bitim va Yuklashdan oldingi tekshiruv to'g'risidagi bitim. Kelib chiqish qoidalari tovarning qaysi mamlakatda ishlab chiqarilganini aniqlash mezonlarini uyg'unlashtiradi, bu esa tarif imtiyozlarini to'g'ri qo'llash uchun zarur. Yuklashdan oldingi tekshiruvdan foydalanadigan davlatlar oldidagi majburiyatlar ichki qonunlar va qoidalarni qo'llashda kamsitishlarga yo'l qo'ymaslik, ularni tezda e'lon qilish va so'ralganda texnik yordam ko'rsatishni o'z ichiga oladi.

Bundan tashqari, JST bitimlari Jahon bojxona tashkiloti (WCO) tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro standartlar bilan uzviy bog'liq holda qo'llaniladi. Tovar nomenklaturasi WCOning Tovarlarini tavsiflash va kodlashtirishning uyg'unlashtirilgan tizimi asosida shakllantiriladi. Bojxona protseduralarini soddalashtirish va uyg'unlashtirish bo'yicha eng muhim xalqaro hujjat — WCOning qayta ko'rib chiqilgan Kioto konvensiyasi (1999) bo'lib, u standart, shaffof va oldindan bashorat qilinadigan bojxona tartiblari, deklaratsiyadan keyingi nazorat, xavflarni boshqarish va axborot texnologiyalaridan foydalanish tamoyillarini o'rnatadi. Xalqaro savdo zanjirlari xavfsizligini ta'minlash esa WCOning SAFE standartlar doirasi orqali tartibga solinadi. O'zbekiston uchun ushbu hujjatlarga qo'shilish yoki ular tamoyillarini milliy qonunchilikka tatbiq etish JSTga a'zolik bilan bir yo'nalishda amalga oshirilishi lozim.

Ushbu bitimlarning umumiy talabi — bojxona chora-tadbirlari shaffof, oldindan bashorat qilinadigan, kamsitishsiz va savdoni ortiqcha cheklamaydigan bo'lishidir. Aynan shu talablar O'zbekiston bojxona-huquqiy tizimini muvofiqlashtirishning mezonlari bo'lib xizmat qiladi.

## **O'zbekiston bojxona qonunchiligining hozirgi holati va muvofiqlashtirish yo'nalishlari**

O'zbekiston bojxona qonunchiligining asosini Bojxona kodeksi tashkil etadi. Uning 16-moddasida bojxona rejimlari turlari — eksport, reeksport, bojxona ombori, erkin bojxona zonasi, boj olinmaydigan savdo do'koni kabilar sanab o'tilgan. Biroq



JSTga a'zolik bojxonaga oid hujjatlarning muhim qismini tashkilot bitimlari talablariga qo'shimcha ravishda moslashtirishni taqozo etadi.

Manba tahlili shuni ko'rsatadiki, hozirgi paytda O'zbekistonda bojxona-huquqiy bazani JST bitimlariga muvofiqlashtirish uchun birinchi navbatda quyidagi yo'nalishlar bo'yicha ish olib borish zarur. JSTga qo'shilishda ayrim tovarlar importiga nisbatan eng kamida 15 foizlik boj stavkasini ushlab turib, keyinchalik uni bosqichma-bosqich kamaytirib borish; tovarlarni bojxona rasmiylashtiruvini tezlashtirish va erkin muomalaga chiqarilgandan keyin qonun hujjatlariga to'liq rioya etilishini ta'minlash uchun bojxona auditini takomillashtirish; tovarlarni eksport va importga rasmiylashtirishda bojxona yig'imlarini muvofiqlashtirish; dastlabki qaror qabul qilish mexanizmini joriy etish; bojxona organlari o'rtasida o'zaro axborot almashish mexanizmini takomillashtirish; rasmiylashtiruvga sarflanadigan vaqtni qisqartirish maqsadida raqamli bojxonani rivojlantirish; tovarlarga texnik talablarni amalga oshirishda xalqaro standartlarni qo'llash.

Bularni umumlashtirib, muvofiqlashtirishning quyidagi asosiy huquqiy yo'nalishlarini ajratish mumkin.

Birinchi yo'nalish — bojxona qiymatini aniqlashni GATT-1994ning VII moddasiga to'liq muvofiqlashtirish, ya'ni bitim qiymati usulini asosiy usul sifatida mustahkamlash va baholovchining mulohazasiga asoslangan o'zboshimcha baholashdan voz kechish.

Ikkinchi yo'nalish — dastlabki qaror institutini joriy etish, bunda tashqi savdo ishtirokchisi tovar chegaraga yetib kelishidan oldin uning tasnifi, kelib chiqishi va qiymatini aniqlash usuli bo'yicha rasmiy, majburiy kuchga ega qaror olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Uchinchi yo'nalish — bojxona nazoratini deklaratsiyadan keyingi auditga siljitish. Bu yondashuv tovarni chegarada uzoq ushlab turmasdan tez chiqarishga, ammo keyinchalik hujjatlar va operatsiyalarni tekshirish orqali qonuniyligni ta'minlashga imkon beradi.



To'rtinchi yo'nalish — bojxona rasmiylashtiruvini to'liq raqamlashtirish va elektron hujjat almashinuviga o'tish.

Beshinchi yo'nalish — texnik reglamentlar, standartlar va sertifikatlash tizimini TBT hamda SPS bitimlariga muvofiqlashtirish, xalqaro akkreditatsiyaga ega laboratoriyalar sonini oshirish.

Sertifikatlash tizimini muvofiqlashtirish alohida e'tibor talab qiladi. Manba tahliliga ko'ra, O'zbekistonda import qilinadigan tovarlarning muhim qismi (taxminan 62 foizi) majburiy sertifikatlashdan o'tkaziladi, sertifikatlanishi majburiy bo'lgan mahsulotlar ro'yxatiga iste'mol tovarlarining deyarli barchasi kiradi. JSTga a'zo bo'layotgan mamlakat mahalliy tovarlarni sertifikatlash tartibini importni sertifikatlash tartibi bilan bir xillashtirishi, kamsituvchi amaliyotlardan voz kechishi hamda sertifikatlanadigan tovarlar ro'yxatini xalqaro tajribadan kelib chiqib qisqartirishi lozim. Bu esa savdodagi texnik to'siqlarni kamaytiradi va milliy mahsulotlarning eksport imkoniyatlarini kengaytiradi.

Alohida e'tiborga molik jihat — tranzit va notarif choralarni liberallashtirish. Tadqiqotchilar bojxona qonunchiligini modernizatsiya qilish uchun tranzit tovarlar bo'yicha nazorat tartib-taomillarini minimallashtirish, litsenziyalanadigan tovarlarni tashish shartlarini soddalashtirish, fitosanitariya, veterinariya va sanitariya nazorati protseduralarini yengillashtirish, xalqaro transportni avtorizatsiya qilish normalarini liberallashtirish hamda bojxona qoidalari buzilgani uchun sanksiyalarni kontrabanda ko'payishiga olib kelmaydigan darajada yumshatishni taklif etadilar. Muhimi shundaki, huquqiy bazani liberallashtirish JST normalari bilan uyg'un tarzda amalga oshirilishi lozim.

Muvofiqlashtirish jarayonida xalqaro hamkorlik normalarini ham hisobga olish zarur. O'zbekiston bir qator xalqaro bojxona konvensiyalari va ikki tomonlama shartnomalar ishtirokchisi hisoblanadi; masalan, bojxona qonunchiligi buzilishiga qarshi kurashish sohasidagi hukumatlararo bitimlar bojxona organlari o'rtasida axborot almashinuvi va o'zaro yordamning huquqiy asosini tashkil etadi<sup>6</sup>. JSTga

<sup>6</sup> O'zbekiston bojxona axborotnomasi 2025.



a'zolik bunday hamkorlikni Jahon bojxona tashkilotining ko'p tomonlama standartlari doirasida yanada kengaytirishni taqozo etadi, bu esa transchegaraviy savdoda ma'lumotlarning o'zaro tan olinishini ta'minlaydi.

Shuni ta'kidlash joizki, bojxona-huquqiy tartibga solish tizimi tashqi iqtisodiy faoliyatni huquqiy tartibga solishning kengroq tizimi bilan uzviy bog'liq. Tashqi iqtisodiy faoliyat — xalqaro iqtisodiy hamkorlikning mustaqil yo'nalishlaridan biri bo'lib, unda O'zbekiston yuridik va jismoniy shaxslari, xorijiy tijorat tashkilotlari bilan sherikchilikda faoliyat yurituvchi subyektlar hamda chet el rezident bo'lmagan shaxslari ishtirok etadi. Ushbu subyektlar manfaatlari muvofiqlashtirish jarayonida muvozanatli tarzda hisobga olinishi, huquqiy o'zgarishlar esa jamoatchilik va xususiy sektor bilan maslahatlashuv asosida qabul qilinishi maqsadga muvofiqdir.

### **Milliy yagona darcha — TFAning 10.4-moddasi talabi**

Bojxona-huquqiy tartibga solishni JST standartlariga muvofiqlashtirishning eng muhim institutsional vositasi — Milliy yagona darcha (keyingi o'rinlarda — MYD) tizimini joriy etishdir. UN/CEFACTning 33-tavsiyasiga ko'ra, yagona darcha — tovar va transportda ishtirok etuvchi tomonlarga barcha import, eksport va tranzitga oid tartibga solish talablari uchun standartlashtirilgan ma'lumot va hujjatlarni yagona kirish nuqtasiga topshirishga imkon beruvchi tuzilmadir<sup>7</sup>. TFAning 10.4-moddasiga muvofiq, JSTga a'zo davlatlar zamonaviy, samarali va shaffof savdo muhitini rivojlantirish maqsadida bunday tizimlarni joriy etishlari nazarda tutilgan; 23.1-modda esa milliy savdoni yengillashtirish qo'mitasini (NTFC) MYDni yaratish va monitoring qilish uchun hukumatlararo mexanizm sifatida belgilaydi. Hozirgi kunda JSTga a'zo davlatlarning 111 tasi Milliy yagona darcha tizimidan foydalanadi, ular turli rivojlanish bosqichlarida turibdi.

“Yagona darcha” loyihasini muvaffaqiyatli amalga oshirishning eng muhim sharti — hukumat va tegishli davlat organlarining siyosiy irodasi hamda ishbilarmon

<sup>7</sup> Toshpulatova M. U. JST talablari asosida O'zbekistonda milliy yagona darcha tizimini joriy etish: istiqbollar va iqtisodiy samaradorlik // Qo'qon universiteti xabarnomasi. 2025. № 16.–B. 156–160. URL <https://doi.org/10.54613/ku.v16i.1272>



doiralarning har tomonlama qo'llab-quvvatlashi va ishtirokidiR. Bunday loyihani boshqarish uchun muvofiqlashtiruvchi qo'mita, loyihani amalga oshirish bo'limi, biznes-jarayonlarni qayta loyihalash guruhi, ma'lumotlarni uyg'unlashtirish guruhi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari guruhi hamda huquqiy masalalar guruhidan iborat institutsional tuzilma zarur bo'ladi. Huquqiy masalalar guruhining vazifasi — elektron hujjat aylanishi, idoralararo ma'lumot almashinuvi va shaxsiy ma'lumotlar himoyasini tartibga soluvchi normativ bazani ishlab chiqishdir.

## **Xalqaro tajribaning qiyosiy tahlili**

Milliy yagona darcha va zamonaviy bojxona protseduralarini joriy etishning xalqaro tajribasi muvofiqlashtirishning amaliy modelini shakllantirish uchun boy material beradi.

Quyidagi jadvalda yetakchi mamlakatlar tajribasining natijalari umumlashtirilgan.

1-jadval

## **Milliy yagona darcha tizimini joriy etishning xalqaro tajribasi va natijalari**

| <b>Mamlakat</b> | <b>Tizim / joriy etilgan yili</b>             | <b>Erishilgan asosiy natijalar</b>                                                                                               |
|-----------------|-----------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Mavrikiy        | TradeNet (1994, bosqichma-bosqich)            | Rasmiylashtiruv vaqti 4 soatdan 15 daqiqaga qisqargan; taxminan YaIMning 1 foizi hajmida tejash; tajriba Ganaga eksport qilingan |
| Shvetsiya       | Virtual bojxona idorasi (2000-yillar)         | Vaqt 80 foizga, xarajatlar 54 foizga kamaygan; 150 dan ortiq elektron xizmat, ko'p tilli qo'llab-quvvatlash                      |
| Niderlandiya    | Yuklarni rasmiylashtirish punkti / CCP (1994) | Ko'p agentlikli tekshiruvlar birlashtirilgan; yuk kechikishlari                                                                  |



| Mamlakat     | Tizim / joriy etilgan yili                              | Erishilgan asosiy natijalar                                                                                                               |
|--------------|---------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|              |                                                         | bartaraf etilgan, xodim xarajatlari kamaygan                                                                                              |
| AQSh         | ACE<br>Avtomatlashtirilgan tijorat muhiti (1990-yillar) | — Ma'lumot maydonlari 3000 tadan ~200 taga qisqartirilgan; 2021-yilda 795 000 soat va 2,7 mlrd dollar tejash                              |
| Singapur     | TradeNet / NTP                                          | Hujjatlarni qayta ishlash vaqti 4 kundan 15 daqiqaga; to'lovlar 6–13 dollardan 2,10 dollarga; 4–20 ta hujjat o'rniga 1 ta elektron hujjat |
| Koreya Resp. | uTradeHub / UNIPASS                                     | Biznes hamjamiyatining jami tejashi ~1,819 mlrd dollar; ma'muriy ishlarni avtomatlashtirish, unumdorlikning oshishi                       |

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, barcha mamlakatlarda yagona darcha tizimida bojxona asosiy rolni o'ynaydi, biroq boshqa nazorat organlari ham faol ishtirok etadi. Tizimlarning barchasi elektron hujjat almashinuvi standartlariga yoki internet texnologiyalariga tayanadi va umumiy maqsad — vaqtni qisqartirish, xarajatlarni kamaytirish va jarayonlarni shaffof qilishga xizmat qiladi. Moliyalashtirish modellarida farqlar mavjud: Mavrikiy “pay-as-you-use” tamoyili asosida o'zini-o'zi moliyalashtirsa, Shvetsiya davlat mablag'i hisobidan bepul xizmat ko'rsatadi, AQSh esa federal byudjetga tayanadi.

OECD tadqiqotlari Yevropa va Markaziy Osiyoda savdoni yengillashtirish islohotlari orqali savdo xarajatlarini 14,8 foizga, Osiyoda esa 17,2 foizga kamaytirish



mumkinligini baholaydi<sup>8</sup>. Bu ko'rsatkichlar O'zbekiston uchun ham potentsial iqtisodiy samaraning miqyosini ko'rsatadi.

Xalqaro tajribadan O'zbekiston uchun bir necha muhim saboq kelib chiqadi. Birinchidan, tizimning huquqiy asosi texnik yechimdan oldin shakllantirilishi kerak: AQSh tajribasida ko'rsatilganidek, kuchli huquqiy asos va siyosiy qo'llab-quvvatlash tizim muvaffaqiyatining kaliti hisoblanadi. Ikkinchidan, ma'lumotlarni standartlashtirish va uyg'unlashtirish idoralararo integratsiyaning zaruriy sharti bo'lib, u WCO ma'lumotlar modeliga tayanishi lozim. Uchinchidan, moliyalashtirish modeli mamlakat sharoitidan kelib chiqib tanlanishi mumkin — to'liq davlat mablag'i (Shvetsiya), davlat-xususiy sheriklik (Mavrikiy) yoki bojxona to'lovlari hisobidan (Niderlandiya). O'zbekiston sharoitida bosqichma-bosqich joriy etish va davlat-xususiy sheriklik modeli optimal bo'lishi mumkin.

## **Xavflarni boshqarish va bojxona nazoratining raqamli transformatsiyasi**

Bojxona-huquqiy tartibga solishni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirishning yana bir muhim jihati — xavflarni boshqarish tizimini takomillashtirishdir. Jahonda tovar aylanmasining oshishi qonuniy savdoni qo'llab-quvvatlash, boj va soliqlarni to'liq undirish, kontrabanda va kontrafakt tovarlar bilan kurashish uchun bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish va uyg'unlashtirishni talab qiladi. Shu bois bojxona protseduralarida samarali xavfni boshqarish tizimini qo'llash savdo va tartibga solish nazorati o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga xizmat qiladi.

Bojxona organlarining xavfni boshqarish tizimlari xalqaro me'yorlarga asoslanadi va tashqi iqtisodiy faoliyatning milliy sharoitlarini inobatga olgan holda amalga oshiriladi. Yetakchi davlatlar bojxona idoralari ushbu metodologiyani zamonaviy axborot texnologiyalari (blokcheyn, sun'iy intellekt), texnik nazorat vositalari va jarayonlarni avtomatlashtirishga tayangan holda qo'llaydi. O'zbekiston

<sup>8</sup> Toshpulatova M. U. JST talablari asosida O'zbekistonda milliy yagona darcha tizimini joriy etish: istiqbollar va iqtisodiy samaradorlik // Qo'qon universiteti xabarnomasi. 2025. № 16.–B. 156–160. URL: <https://doi.org/10.54613/ku.v16i.1272>



uchun bu — bojxona sohasida axborot texnologiyalarini joriy etish, elektron hujjat almashinuvi tizimini takomillashtirish va jarayonlarni avtomatlashtirish orqali xavflarni kamaytirish imkoniyatini anglatadi.

Bojxonada xavflarni boshqarish faqat milliy darajada emas, balki xalqaro miqyosda ham amalga oshirilishi lozim. Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonning qo'shni mamlakatlar va boshqa savdo hamkorlari bilan xavf-xatarlarni boshqarish borasidagi hamkorligini kuchaytirish, malakali kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish alohida ahamiyatga ega. Bu yo'nalishdagi islohotlar Jahon bojxona tashkilotining SAFE standartlar doirasi va Kioto'ning qayta ko'rib chiqilgan konvensiyasi qoidalari bilan uyg'un tarzda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

Xavflarni boshqarish tizimini takomillashtirish bir vaqtning o'zida bir necha vazifani hal etadi: u savdoni yengillashtirish orqali qonuniy tovar oqimini tezlashtiradi, ayni paytda bojxona nazoratining ta'sirchanligini oshirib, davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlaydi. Bojxona sohasida axborot texnologiyalarining joriy etilishi, elektron hujjat almashinuvi tizimining takomillashuvi va jarayonlarning avtomatlashtirilishi import va eksportda yuzaga keladigan xavflarni tezda aniqlash va kamaytirish imkonini beradi. Shu tariqa bojxona-huquqiy tizimni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish nafaqat savdo osonlashuviga, balki mamlakatning global savdo tizimida ishonchli hamkor sifatidagi o'rnini mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

### **Muvofiqlashtirishning bojxona-tarif siyosati va iqtisodiy oqibatlari**

Bojxona-huquqiy tizimni JST standartlariga muvofiqlashtirish o'z-o'zidan maqsad emas, balki muayyan iqtisodiy natijalarga erishish vositasidir. Shu bois muvofiqlashtirishning ijobiy va salbiy oqibatlarini tahlil qilish uning ustuvorliklarini to'g'ri belgilashga yordam beradi.

Manba tahlili O'zbekiston JSTga a'zo bo'lgan taqdirda iqtisodiyotda quyidagi ijobiy o'zgarishlar yuzaga kelishini ko'rsatadi. Bojlarning minimallashtirish natijasida iste'molchilar arzon narxlarda tovar sotib olish imkoniga ega bo'ladi. Chetdan arzon xom ashyo kirishi ishlab chiqarishni rivojlantiradi va eksportning



oshishiga, bu esa iqtisodiy o'sishga olib keladi. Texnika va texnologiya importining oshishi bozorni to'yintiradi, ishlab chiqarishni ortiradi va ishsizlik darajasini kamaytiradi. A'zo mamlakatlar bilan qulay bojxona rejimi doirasida savdo aloqalari yo'lga qo'yiladi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishda a'zolik mamlakat uchun "garov muhri" vazifasini o'taydi. Iqtisodiy va siyosiy islohotlar hamda iqtisodiyotning diversifikatsiyalashuvi jarayoni tezlashadi.

Ayni paytda muvofiqlashtirish bilan bog'liq salbiy jihatlarni ham inobatga olish zarur. JSTga a'zo mamlakatlarda chet el korxonalarida ishlab chiqarilgan sifatli va arzon mahsulotlar ichki, raqobatbardosh bo'lmagan korxonalarning inqirozga uchrashiga sabab bo'lishi mumkin. Bojlarning pasayishi qisqa muddatda davlat byudjeti daromadlariga ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, ayrim sohalarda ijobiy ta'sir sezilarli ko'rinadi: masalan, dori-darmon vositalari narxining pasayishi bilan aholining farovonligi oshib, hisob-kitoblarga ko'ra eksportni bir necha million dollarga oshirish imkoniyati paydo bo'ladi. Bu esa muvofiqlashtirishni tarmoq xususiyatlarini hisobga olgan holda tanlab olib borish zarurligini ko'rsatadi.

Xalqaro tajriba a'zolikning iqtisodiy ta'siri darhol emas, balki bir necha yil ichida namoyon bo'lishini tasdiqlaydi. Manbalarda keltirilgan Qozog'iston misolida (tashkilotga 2015-yilda a'zo bo'lgan) inflyatsiya darajasi 2013–2015-yillardagi o'rtacha 6,41 foizdan 2016–2018-yillarda 9,34 foizgacha ko'tarilib, keyin 2019–2021-yillarda 6,66 foizga pasaygan; ishsizlik darajasi esa 5,06 foizdan bosqichma-bosqich 4,86 foizgacha kamaygan. Bu ko'rsatkichlar a'zolikdan keyingi dastlabki yillarda muvofiqlashtiruv xarajatlari sezilishini, ijobiy samara esa keyinroq shakllanishini anglatadi.

Bojxona-tarif siyosati nuqtai nazaridan muvofiqlashtirish JST talabiga muvofiq tashqi savdoni imkon qadar tarif choralari, ya'ni bojxona bojlari orqali tartibga solishga o'tishni nazarda tutadi; notarif to'siqlar esa faqat asosli hollarda va kamsitishsiz qo'llanilishi lozim. O'zbekiston uchun optimal strategiya — himoya ehtiyoji bo'lgan ayrim tovarlar importiga eng kamida 15 foizlik boj stavkasini ushlab



turib, uni bosqichma-bosqich kamaytirib borish, shu tariqa ichki ishlab chiqaruvchilarga moslashuv uchun vaqt berishdir.

Yuqoridagi tahlilni umumlashtirib, muvofiqlashtirishning asosiy yoʻnalishlari va ular boʻyicha hozirgi holat hamda ustuvor chora-tadbirlarni quyidagi jadval shaklida taqdim etish mumkin.

2-jadval

**Bojxona-huquqiy tizimni JST standartlariga muvofiqlashtirishning asosiy yoʻnalishlari**

| JST intizomi / bitimi               | Muvofiqlashtirish talabi                                                                       | Ustuvor chora-tadbir                                                                  |
|-------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------|
| Bojxona qiymati (GATT VII moddasi)  | Bitim qiymati usulini asosiy usul sifatida qoʻllash, indikativ kiritish narxlardan voz kechish | Bojxona kodeksiga baholash usullarining qatʼiy ketma-ketligini                        |
| Savdoni osonlashtirish bitimi (TFA) | Rasmiylashtiruvni tezlashtirish, oldindan xabar berish, dastlabki qaror                        | Dastlabki qaror instituti va tovarlarni tez chiqarish tartibini joriy etish           |
| TFA 10.4-modda                      | Integratsiyalashgan Milliy yagona darcha tizimi                                                | Idoralararo integratsiya va “bir martalik maʼlumot” tamoyilini normativ mustahkamlash |
| TBT va SPS bitimlari                | Texnik reglament, standart va sertifikatlashni talablarga moslashtirish                        | Xalqaro akkreditatsiyaga ega laboratoriyalar sonini oshirish                          |
| Bojxona nazorati (Kioto)            | Deklaratsiyadan keyingi audit va xavflarni boshqarishga oʻtish                                 | Xavf profillari, elektron hujjat almashinuvi va kadrlar malakasini oshirish           |



**JST intizomi Muvofiqlashtirish  
/ bitimi talabi**

**Ustuvor chora-tadbir**

konvensiyasi,  
WCO SAFE)

## **Natijalar muhokamasi**

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston bojxona-huquqiy tartibga solish tizimini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish — bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan moddiy-huquqiy va protsessual islohotlarning yaxlit majmuini talab qiladi. Bu xulosa mavjud tadqiqotlar bilan uyg'undir, biroq ularni muhim jihat bilan to'ldiradi.

M.U.Toshpulatovaning ishida asosan Milliy yagona darcha tizimining institutsional va iqtisodiy jihatlariga urg'u berilgan<sup>9</sup>, N.S. Ismailova va hammualliflarning qo'llanmasida esa JST a'zolidan umumiy iqtisodiy va savdo aspektlari yoritilgan. Ushbu maqola bu yondashuvlarni yagona huquqiy ramkaga birlashtirib, yagona darchani alohida texnik loyiha sifatida emas, balki bojxona qiymati, dastlabki qaror, deklaratsiyadan keyingi audit va xavflarni boshqarish institutlari bilan bir tizimda ko'rib chiqadi. Aynan shu integratsiyalashgan qarash muvofiqlashtirishning ustuvorliklarini to'g'ri belgilashga imkon beradi.

Xalqaro tajribaning qiyosiy tahlili I. Martínez-Zarzoso va S. Chelalaning yagona darcha savdo hajmini o'rtacha 37 foizga oshirishi haqidagi ekonometrik xulosalari<sup>10</sup> hamda D. Widdowson va hammualliflarning TFA bilan bevosita bog'liqlik, "bir martalik ma'lumot yuborish" va bosqichma-bosqich strategiya muhimligi haqidagi kuzatuvlari<sup>11</sup> bilan mos keladi. Shu bilan birga, tahlil A.Syahrir va hammualliflar ta'kidlagan xatarlarni — siyosiy irodasizlik, texnologik tafovutlar

<sup>9</sup> Toshpulatova M. U. JST talablari asosida O'zbekistonda milliy yagona darcha tizimini joriy etish: istiqbollar va iqtisodiy samaradorlik // Qo'qon universiteti xabarnomasi. 2025. № 16.-B. 156-160. URL: <https://doi.org/10.54613/ku.v16i.1272>

<sup>10</sup> Martínez-Zarzoso, I., & Chelala, S. (2020). The impact of single windows on trade. *The World Economy*, 43(10), 2549–2573. <https://doi.org/10.1111/twec.12960>

<sup>11</sup> Widdowson, D., Blegen, B., Short, G., Lewis, G., Garcia-Godos, E., & Kashubsky, M. (2018). Single window in the context of the WTO Trade Facilitation Agreement. *World Customs Journal*, 13(1), 3–19.



va huquqiy moslashuv muammolarini<sup>12</sup> — O‘zbekiston sharoitida ham dolzarb ekanini ko‘rsatadi.

Muhokamaning muhim nuqtasi — muvofiqlashtirishning ijobiy va salbiy oqibatlari o‘rtasidagi muvozanatdir. Bir tomondan, bojlarning minimallasuvi iste’molchilarga arzon tovarlar sotib olish imkonini beradi, arzon xom ashyo importi ishlab chiqarishni rivojlantiradi, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar uchun a‘zolik “garov muhri” vazifasini o‘taydi. Boshqa tomondan, xorijiy korxonalarda ishlab chiqarilgan sifatli va arzon mahsulotlar ichki raqobatbardosh bo‘lmagan korxonalarga bosim o‘tkazishi mumkin. Qozog‘iston, Turkiya va Gruziya tajribasi shuni ko‘rsatadiki, a‘zolikning ijobiy ta’siri darhol emas, balki bir necha yil ichida namoyon bo‘ladi. Bu esa muvofiqlashtirishni himoya choralari (eng kamida 15 foizlik boj stavkasini ushlab turish va uni bosqichma-bosqich kamaytirish) bilan uyg‘un olib borish zarurligini tasdiqlaydi.

Muhokamaning yana bir jihati — muvofiqlashtirishning ketma-ketligi masalasidir. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, Milliy yagona darcha kabi murakkab tizimlar “katta portlash” usulida emas, balki bosqichma-bosqich joriy etilgan taqdirdagina muvaffaqiyat qozonadi. Mavrikiy tajribasi (1994-yildan boshlab bosqichma-bosqich joriy etilgani) va D. Widdowson va hammualliflar ta’kidlagan bosqichlilik strategiyasi [Widdowson va b. 2018] buni tasdiqlaydi. O‘zbekiston uchun ham optimal yo‘l — avval bojxona qiymati va rasmiylashtiruv jarayonlarini muvofiqlashtirish, so‘ngra mavjud elektron xizmatlarni yagona platformaga integratsiyalash, keyin esa boshqa nazorat organlarini bosqichma-bosqich tizimga ulashdir.

Shuningdek, muvofiqlashtirishning muvaffaqiyati faqat huquqiy normalar mazmuniga emas, balki ularni amalga oshirishning institutsional shart-sharoitlariga ham bog‘liq. A.Syahrir va hammualliflar aniqlagan siyosiy iroda, texnologik infratuzilma va kadrlar salohiyati omillari O‘zbekistonda ham hal qiluvchi

<sup>12</sup> Akbar S., Mendoza M. W., Febriansyah. ASEAN Single Window Implementation: Exploring Benefits, Challenges, Solutions and Future Roadmap // Journal of Principles Management and Business. — 2025. — Vol. 4, № 1. — P. 15-34



ahamiyatga ega. Xususan, xalqaro akkreditatsiyaga ega laboratoriyalar tanqisligi (100 dan ortiq laboratoriyadan atigi 10 tasi) va malakali bojxona kadrlarini tayyorlash zarurati muvofiqlashtirishning texnik jihatlarini murakkablashtiradi. Shu bois huquqiy islohot institutsional salohiyatni oshirish bilan parallel olib borilishi lozim.

Shunday qilib, tadqiqot natijalari muvofiqlashtirishning huquqiy modeli sifatida quyidagilarni birlashtiradi: bojxona qiymatini GATT VII moddasiga muvofiqlashtirish; dastlabki qaror va deklaratsiyadan keyingi auditni joriy etish; rasmiylashtiruvni raqamlashtirish; texnik va SPS choralarini xalqaro standartlarga moslashtirish; hamda bularning barchasini birlashtiruvchi integratsiyalashgan Milliy yagona darchani barpo etish. Ushbu elementlar birgalikda va izchil ketma-ketlikda qo'llanilgandagina xalqaro tajribada kuzatilgan samaradorlikka erishish mumkin.

## XULOSA

O'zbekiston Respublikasining Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonida bojxona-huquqiy tartibga solish tizimini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish — mamlakat tashqi iqtisodiy siyosatining strategik vazifasi bo'lib, u milliy qonunchilikni tashkilotning ko'p tomonlama bitimlariga bosqichma-bosqich moslashtirishni talab qiladi.

Tadqiqot natijasida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi. Muvofiqlashtirishning huquqiy o'zagi bojxona qiymatini GATT-1994ning VII moddasiga muvofiq bitim qiymati usuli asosida aniqlashga o'tish, dastlabki qaror institutini va deklaratsiyadan keyingi auditni joriy etish hamda bojxona rasmiylashtiruvini to'liq raqamlashtirishdan iborat. Institutsional jihatdan esa markaziy vazifa — TFAning 10.4-moddasi talablariga javob beruvchi, idoralararo integratsiyaga asoslangan Milliy yagona darcha tizimini yaratishdir.

Xalqaro tajribaning qiyosiy tahlili bunday islohotlar rasmiylashtiruv vaqtini bir necha kundan bir necha daqiqaga qisqartirishi, tranzaksion xarajatlarni kamaytirishi, savdo hajmi va shaffoflikni oshirishi hamda korrupsiya imkoniyatlarini toraytirishini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, muvofiqlashtirish milliy ishlab



chiqaruvchilar manfaatlarini himoya qiluvchi bosqichma-bosqich yondashuv bilan uyg'un olib borilishi lozim.

Amaliy tavsiyalar sifatida quyidagilar taklif etiladi: bojxona qonunchiligiga bitim qiymati usuli, dastlabki qaror va bojxona auditi institutlarini mustahkamllovchi o'zgartirishlar kiritish; elektron hujjatning yuridik kuchini va "bir martalik ma'lumot yuborish" tamoyilini normativ mustahkamlash; texnik reglamentlar va SPS tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish, xalqaro akkreditatsiyaga ega laboratoriyalar sonini oshirish; xavflarni boshqarish tizimini WCO SAFE standartlari asosida rivojlantirish va malakali kadrlar tayyorlashga e'tibor qaratish.

Muvofiqlashtirish jarayonining muvaffaqiyati uch shartning bir vaqtda bajarilishiga bog'liq: birinchidan, huquqiy normalarning JST bitimlari mazmuniga to'liq mos kelishi; ikkinchidan, ularni amalga oshirishning institutsional va texnik salohiyati (raqamli infratuzilma, akkreditatsiyalangan laboratoriyalar, malakali kadrlar); uchinchidan, islohotlarni izchil, bosqichma-bosqich va manfaatdor tomonlar bilan maslahatlashgan holda o'tkazish. Ushbu shartlarning uyg'unligi muvofiqlashtiruv xarajatlarini kamaytirib, uning ijobiy samarasini tezlashtiradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Вахабов А. В., Таджибаева Д. А., Хажигакиев Ш. Х. Жаҳон иқтисодиёти ва халқаро иқтисодий муносабатлар: дарслик. — Тошкент: Baktria press, 2015. — 286 б.
- 2.Исмаилова Н. С., Дадабаев У. А., Ахмаджонов А. Х., Файзиева Х. К., Ахмадалиева З. Х. Жаҳон савдо ташкилоти ва кўп томонлама савдо тизими. Ўқув қўлланма. — Тошкент, 2022. — 176 б.
- 3.О'zbekiston bojxona axborotnomasi. Bojxona sohasida xavflarni boshqarish masalalari // O'zbekiston bojxona axborotnomasi. — 2025. — № 1. — Б. 12–18.
- 4.Toshpulatova M. U. JST talablari asosida O'zbekistonda milliy yagona darcha tizimini joriy etish: istiqbollar va iqtisodiy samaradorlik // Qo'qon universiteti xabarnomasi. — 2025. — № 16. — Б. 156–160. — URL: <https://doi.org/10.54613/ku.v16i.1272>



4. Akbar S., Mendoza M. W., Febriansyah. ASEAN Single Window Implementation: Exploring Benefits, Challenges, Solutions and Future Roadmap // Journal of Principles Management and Business. — 2025. — Vol. 4, № 1. — P. 15–34.
5. Asian Development Bank. National Single Window: Guidance Note. — Manila: ADB, 2017. — URL: <https://www.adb.org/documents/national-single-window-guidance-note>
6. Bhagwati J. Free Trade Today. — Princeton: Princeton University Press, 2002. — 128 p.
7. Grainger A. Trade Facilitation: A Conceptual Review // Journal of World Trade. — 2011. — Vol. 45, № 1. — P. 39–62.
8. Hoekman B., Kostecki M. The Political Economy of the World Trading System: The WTO and Beyond. — 3rd ed. — Oxford: Oxford University Press, 2009. — 792 p.
9. Jackson J. H. The World Trading System: Law and Policy of International Economic Relations. — 2nd ed. — Cambridge, MA: MIT Press, 1997. — 441 p.
10. Martínez-Zarzoso I., Chelala S. The Impact of Single Windows on Trade // The World Economy. — 2020. — Vol. 43, № 10. — P. 2549–2573. — URL: <https://doi.org/10.1111/twec.12960>
11. Matsushita M., Schoenbaum T. J., Mavroidis P. C., Hahn M. The World Trade Organization: Law, Practice, and Policy. — 3rd ed. — Oxford: Oxford University Press, 2015. — 1024 p.
12. Никифоров В. А. Международное торговое право как межсистемное комплексное образование // Право. — С. 347–348.
13. Organisation for Economic Co-operation and Development. Trade Facilitation and the Global Economy. — Paris: OECD Publishing, 2018. — 156 p.
14. Rege V. Customs Valuation and Customs Reform // Development, Trade, and the WTO: A Handbook / eds. B. Hoekman, A. Mattoo, P. English. — Washington, D.C.: World Bank, 2002. — P. 128–138.



15. Tijan E., Agatić A., Jović M., Aksentijević S. Maritime National Single Window — A Prerequisite for Sustainability in Seaport Business // Sustainability. — 2019. — Vol. 11, № 17. — Art. 4570. — URL: <https://doi.org/10.3390/su11174570>
16. Trebilcock M. J., Howse R., Eliason A. The Regulation of International Trade. — 4th ed. — London: Routledge, 2013. — 916 p.
17. United Nations Centre for Trade Facilitation and Electronic Business. Recommendation No. 33: Establishing a Single Window to Enhance the Efficient Exchange of Information Between Trade and Government. — Geneva: UN/CEFACT, 2020. — URL: <https://unece.org/trade/uncefact/rec33>.